INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

QISSASI RABG‘UZIY ASARIDA KELTIRILGAN HADISLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ashirova Diyora Xusniddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 4- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nosiruddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy’’nomi bilan mashhur bo ‘lgan asarida keltirilgan hadislarning tarbiyaviy ahamiyati haqida malumot beriladi. Bundan tashqari asarda keltirilgan rivoyat va hikoyatlar mazmunining ham tarbiyaviyiy ahamiyati ko ‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: qissa, rivoyat hadis, Ibrohim alayhissalom qissasi, tarbiyaviy jihat,hikoyat

Abstract.This article provides information about the educational value of the hadiths mentioned in the work of Nasiruddin Burhanuddin oglu Rabguzi, known as "Qisas Rabguzi". In addition, the educational value of the content of the narrations and stories mentioned in the work is also considered.

Keywords: story, narration, hadith, story of Abraham, educational aspect, story

Аннотация.В данной статье представлена информация об образовательной ценности хадисов, упомянутых в труде Насируддина Бурханиддина оглу Рабгузи, известном как «Кисас Рабгузи». Кроме того, рассматривается образовательная ценность содержания рассказов и историй, упомянутых в этом труде.

Ключевые слова: история, рассказ, хадис, история Авраама, образовательный аспект, история

Kirish . Mumtoz adabiyotimizda yozilgan ilk nasriy asar sifatida Nosiruddin Burhoniddun Rabg ‘uziyning “Qissasi Rabg ‘uziy “ asari tilga olinadi. Asar Nosiruddin To‘qbog‘abekning farmoni asosida yozilgan. Asar yozilishidan asosiy maqsad turkiy xalqlar orasida islom dinini targ ‘ib qilish , xalqni Payg‘ambarlar hayot yo‘li, faoliyati bilan tanishtirishdir. Rabg ‘uziy hayoti va ijodiy faoliyati haqida malumot boshqa manbalarda saqlanib qolmagan , faqatgina o ‘z asarida qisqa malumotni topish mumkin. Asar 72 bobdan tashkil topgan.

Asar insoniyatni Alloh Taolo tomonidan yaratilgani dastlab erkak zotini so ‘ng ayolni yaratgani haqidagi hamd – u sano bilan boshlanadi va bundan keyin Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ga atalgan g ‘azalini yozadi.

Asar davomida ijodkorning o‘zi haqida asarining yozilishi haqida malumot keltiradi. Va shunday izohlanadi : “ …bu kitobni tuzgan , to‘at yo‘linda tizgan, ma’siyat yobonini kezgan , oz ozlug‘, ko‘p yozuqlug‘ Rabot o ‘g ‘uzning qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin urug‘i… andoq aytur beklar urug‘I, yigitlar arig‘I, ulug ‘ otlug ‘ , qutlug ‘ zotlug ‘ , ezgu qilqlig ‘ , islom yorig‘lig‘,mo ‘g’ul sanilig‘ , musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi , mo ‘minlar quvonchi , himmati adiz , ali tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbog ‘a sabbatallohu alo dinil-islom va salomuhu ’’ .[“Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob.1990, 10] Ushbu tarifdan song asar iltimosiga ko ‘ra yozilgan Nosiruddin To ‘qbo ‘g ‘aga atalgan qasida keltiriladi . [N.Rahmanov:2014:231] Qasidada uning madhi , yaxshi xislatlari , islom diniga bo’lgan hurmati cheksiz ekanligi va boshqa tariflari keltiriladi. Rabg ‘uziyning asar yozilishiga sabab bo‘lgan fikrlari mavjud : …payg‘ambarlar qissalaringa g‘oyat rag‘batim bor. Tekma yerda tekma kim ersada bo‘linur ba’zisi mustaqim, ba’zisi nomustaqim. Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mubattar bor. Bir ozining so‘zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o‘ksuk. Emdi sanung zimmangdin chiqg‘an qalamungdin oqg‘an kitobatma saning, iboratma saning bo‘lib, bizga “Qissas ul- anbiyo” bo‘lsa, o‘qumoqg‘a keraklik, o‘granmakga yarog‘lig‘ bo‘lg‘ay erdi, teb iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi ersa

nechama o‘zumni ul ishga loyiq , ul amalga muvofiq ermasin bilmish erkan o‘zumni og‘irlab nafs saqlamish bo‘lib o‘g‘ur bo‘lsun teb bu og‘ir ishga o‘g‘radimiz. Nosiruddin Rabg‘uziy . “Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob. 1990 :11]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili . “Qisasi Rabg‘uziy” asarining eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan va hozirgi kunda Britaniya muzeyida saqlanib kelmoqda. Ushbu nusxaning faksimeliyasi matnshunos olim Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. [Fozilov E. I.1990, 8-bet.] Asarning bugungi kungacha 10 dan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxalari dunyoning bir qancha muzeylarida saqlanadi. Ushbu nusxalar haqida turk adabiyotshunos olimlari tomonidan atroflicha ma’lumotlar berilgan.

Qisasi Rabg ‘uziy asari nafaqat turkiy adabiyotda balki dunyo olimlari tomonidan ham o‘rganilib nodir manba sifatida qadrlanib kelinmoqda. So ‘zimizning isboti tariqasida asarning chet elda ko ‘chirilgan va saqlanib kelinayotgan nusxalarini ayta olamiz.Bularga London, Leningrad, Parij ,Shvetsiya, Tehron , Boku Shaharlari kiradi.

“Qisasi Rabg ‘uziy’’ asari dastlab turkolog olim N. I. Ilminskiy tomonidan 1859-yilda tadqiq etiladi. Undan so ‘ng N.F . Ostroumov, P. M . Melioranskiy , S . E. Malov , Hasan Orifjan , Abdurauf Fitrat va turk olimlar Shamsiddin Husayn, Chag‘atay , Koprulu , Boyeshan , Aysu Ata, Hajiyeva kabi qator olimlar tomonidan adabiyot va til nuqtayi nazaridan o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida turli katta – kichik hajmdagi janrlar ifodalangan. Jumladan qissa , hikoyat, hadis , oyat , savol-javob, foyda , sher, g‘azal va hk.

Hadis. Islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg‘ambarning faoliyati va ko‘rsatmalari haqida rivoyatlar majmui (Rasulullоh sallallohu alayhi vassallamning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so‘zlari ham hadisdir). [E. Begmatov va b. O ‘zbek tilining izohli lug ‘ati. 473]

“Qisasi Rabg‘uziy’’ asarida bir qancha hadislar keltirilgan va ularning tarbiyaviy ahamiyati ham qissa va rivoyatlarda ifodalangan.

Tahlil va Natijalar Asardagi “ Ibrohim alayhissalom va Zul-arsh podshoh qissasi’’ da keltirilgan hadisga murojaat qilingan. Qissada ibrohim alayhisalom Namrud vafotidan so ‘ng uning barcha mol – mulkini , xazinasini xalqqa tarqatib yuboradi . Lut va Ibrohim alayhissalomlar bu yurtni tark etishadi. Ular bilan birga Sora roziyallohu anhho va 2 musulmon ham birga bo‘lishgan . Ular ketayotgan mamlakatda Zul Arsh ismli yosh yigit podshohlik qilardi. Uning ayollarga nisbatan ko ‘nglida moyillik yuqori edi , qayerda chiroyli ayollar bo ‘ladigan bo ‘lsa , yoniga to ‘plardi .Uning yana bir nomaqbul hislati ham bor edi yani yo‘ldan o‘tayotgan har qanday insonlarning mulkidan bir qism olib qolardi. 15 kishidan iborat soqchilariga Ibrohim va uning yo‘ldoshlari duch kelishdi va ulardan ham ushr so ‘radi. Ibrohim va uning hamrohlari ularga beradigan darajada davlati yo‘qligini aytishdi . Soqchilar bunga ko‘nishdi ammo ulardagi sandiqni qiziqqani bois ochtirdi. Sandiqda Sora roziyallohu anho bor edi. Uni ko‘rgan soqchilar podshohga bunday ayollar yoqishini aytib ularni shaharga qaytarishga majbur qilishadi. Qissaning bu qismida mavzuga doir hadis keltirib o ‘tilgan . Unda aytiladiki : Yo‘l to‘sib odamlardan narsa undurib qoluvchilardan yomon maxluq yo‘qdir ’’. “Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob. 2024: 97] Ushbu hadis qissada podshoh Zul -arshning hatti-harakatlarini qoralash, uning bu ishi to ‘g ‘ri bo‘lmaganini ko‘rsatib berish maqsadida tanlangan . Zero birovning haqqiga ko‘z tikkan insonlarning oxiratta savol – javobi og‘ir bo‘lishi Islom dinida keltirib o‘tilgan.

Bundan tashqari asardagi “Yusuf Siddiq alayhissalom qissalari” da ham hadisdan foydalanilgan . Yoqub alayhissalomning 6 xotinidan 12 o‘g‘li bor edi. Yoqub alayhissalom farzandlari ichida eng ko ‘p Ibrohim alayhissalomni yaxshi ko ‘rardi . Bu holat vaqt o‘tgan sari boshqa farzandlarini bezovta qila boshladi. Ular otasi agar Yusuf alayhissalom bo‘lmasa ularni ham ko’proq yoqtirib qoladi deb o ‘ylardi . Shunday kunlarning birida akalari Yusuf alayhissalomni otasidan uzoqlashtirishga qaror qiladi. Lekin Yusuf alayhissalomni tashqariga chiqarish uchun otasidan ruhsat olish ancha qiyin kechadi. Otasi Yusufni ularga omonat ekanligini tayinlab ketganlaridan so ‘ng ko‘z yosh qilib ortidan kuzatib qoladi.

Akalari uzoqlashgach Yusufni och va suvsiz holda qoldirib , turtkilab manziliga yetadi. Shunda akalari uni yo ‘q qilish uchun har xil usullarni aytadi. Bazilari tosh bilan urib o‘ldirishni bazilar esa pichoq bilan so ‘yib o‘ldirishni aytishadi. Yusuf alayhissalom esa qaysi gunohi uchun uni jazolayotganini anglamasdan ulardan afv so‘raydi. Ularning ini ekanligini aytib yolvoradi , bo ‘lmaydi, keksa otasiga rahm qilishini , otasi yusufning dog ‘ida kuyishini , buni unga ravo ko ‘rmasligini so ‘rab yalinadi. Akalari orasida faqat Yahudo unga rahmi kelib uni quduqqa qo‘l – oyog‘ini bog‘lagan holda tashlashga qolganlarini ham ko‘ndiradi.

Yusufni majburlab quduq boshiga keltirishadi va unga kiyimini yechishini buyuradi, Bunga qarshi bo ‘lgan holda Yusuf alayhissalom akalaridan kiyimini yechmasliklarini agar tirik qolsa avratini yopishini o‘ladigan bo‘lsa kafanligi bo‘lishini yolvorib so‘raydi .Uni quduqqa tashlab akalari otasining yoniga qaytadi va Yusuf alayhisalomning o‘lganligini yetqazadi . Bunga ishonmagan otasiga uning egnidan yechib olingan ko‘ylagini ko‘rsatishadi. Otasi farzandi dog ‘ida yig ‘lay -yig‘lay ko‘zlarinig nuri ketib ko‘r bo‘lib qoladi. Lekin Yusufni bo‘ri yeb ketganiga ishonmaydi, chunki uning ko‘ylagida hech qanday qon dog‘i yo‘q edi . Shundan so‘ng Yoqub alayhissalom Farzandlariga o ‘sha bo‘rini topib keltirishini so‘raydi. O‘gillari esa bir bo‘rini keltiradi . Yoqub huzurida bo‘ri tilga kiradi va uning o‘g‘lini o‘ldirmaganini aytadi, bo‘rining o‘zi esa Misrdan kelganini bu yerda bolasi yo‘qolganini aytadi. Yoqub alayhissalom bo‘ridan Yusufning qayerdaligi haqida so‘raganda Jabroil alayhissalomdan so‘rashini agar u aytmaydigan bo‘lsa bo‘ri hech narsa deyolmasligini ammo o‘g‘lini bo‘rilar yemaganini aytadi. Bu xabardan so‘ng Yoqub alayhissalom bo‘rini bolasiga tezroq qovushishini so‘rab duo qiladi. O‘sha kunning o‘zidayoq bo‘ri bolasini topib Misrga qaytadi. Qissaning aynan shu joyida hadis keltiriladi . Naql qiladilarki, jannatga besh hayvon :

Yoqub alayhissalomning bo ‘rilari

As’hobi Kahfning itlari

Solih alayhissalomning tuyalari

Iso alayhissalomning eshshaklari

Ali roziyallohu anhoning duldullari kirarkan. [“Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob. 2024 :163]

Asarning eng katta hajmli qissalaridan hisoblanmish ushbu qissada yana bir hadis keltirib o‘tilgan . Yusuf alayhissalomni akalari tashlab ketgan quduqdan chiqarib olishganlar uni qul qilib sotishadi. Yusuf alayhissalom Misrga kelib qolgandan so‘ng uning ko‘rkamligi ayollar og‘zidan tushmay qoladi. Uning jamolidan mast bo‘lganlar orasida hojasining xotini ham bor edi. Ayolning ismi Zulayho edi. U Yusufga yaqin bo‘lish uchun bor imkoniyatni ishga solar edi. Yusuf bunday holatni sezar ammo bunga qarshi edi. Uning uchun bu zino , kechirilmas gunoh edi . Bir kuni Zulayho Yusufning ishqida nuning va o ‘zining suratini devorga chizdiradi va xonaga Yusufni chaqiradi. Yusuf kelgach unga shirin so ‘zlar ayta boshlaydi .

Ey Yusuf, ko'zlaring munchayam ko'rklidir?

- Ertaga bu ko'zlar qabrda so'lg'uvsi, tuproqqa aylan-guvsidir, - dedi unga javoban Yusuf alayhissalom.

- Qanday go' zal sochlaring bor-a?

- Ertaga qabr ichida birin-birin chiriguvsidir.

- Behad chiroyli tishlaring bor-a?

- Ertaga go'r ichida hammasi to'kilguvsidir. Payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.) deydilarki: «Payg'ambarlarning eti yerga haromdir, chirimaydir. Zulayhoning so'rovlariga Yusuf alayhissalom uning ko'ngli sovisin deb shu tariqa javob qilgan edilar. Alloh taolo Yusuf alayhissalomning shu so'zlari rostga chiqsin, deb etlarini chiritdi, suyaklarni ushatdi» . [“Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob. 2024, 248]

Hadisdan ma’lumki inson zoti chiroyiga qanchalik ahamiyat bermasin u kun kelib qabrga kirguvchi va u yerda chirib bitguvchidir. Bugungi kunda esa bu insonlarning yodidan ko‘tarilgan va

ular o‘zini tuganmas davlatga va abadiy chiroyga ega deb hisoblashadi. Tashqi ko‘rinish yoki moliyaviy ahvoliga ko‘ra munosabatda bo‘lishadi .Shu turdagi insonlarga ushbu hadis o‘rnak bo‘lsa ne ajab.

Qissa davomida yana bir hadis ko‘zga tashlanadi. Yusuf alayhissalom Misrga podshoh bo‘lgan davrlarda boshqa yurtlarda qahatchilik boshlangan va oziq -ovqat yetishmasligi jiddiy tus olgan edi. Shunda Yoqub alayhissalom o‘g‘illari Misrdan g‘alla keltirish maqsasida yonlariga ayirboshlash uchun narsalar olib yo‘lga chiqishdi . Yusufning huzuriga yetib borishganida esa ular olib borgan mahsulotlarni ham yashirib qaytarib berib yuborishadi . Akalari uyga qaytishganda bu holatni sezadi shunda Yoqub alayhissalom bu narsalarni qabul qilmaslikni tayinlab , ularga harom ekanligini uqtiradi . Shunda o‘g‘illari qaytib yo‘lga otlanishadi , Yoqub alayhissalom esa ularni kuzatayotib nasihat qiladi. Misrga borganda boshqa darvozalardan kirishlarini , barchasini bir darvozadan kirmasligini shunda xalqning ko‘zi tegmasligini aytadi. Payg'ambar alayhissalom deydilar: «Yomon ko‘z erni go'rga kirgizar, tuyani qozonga».[“Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob.2024: 216]

Bundan ma’lumki inson nazari shunday narsaki u sog‘ odamni go‘rga , tuyani esa qozonga ham tushurishi mumkin. Bundaan tashqari har qanday vaziyatda halol va to‘g‘ri bo‘lish kerakligini Yoqub alayhissalomning farzandlariga qilgan nasihatida tushunib olishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar .Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki , Rabg ‘uziyning ushbu asari turkiy adabiyotning muhim manbalaridan biri hisoblanadi va asardagi barcha qissa, rivoyat , hikoyatlar negizida musulmonlarni Islom dini bilan yaqindan tanishtirish , Payg ‘ambarlar tarixidan xabardor etish insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati

1. Nosiruddin Rabg‘uziy . “Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob. Toshkent.: Yozuvchi, 1990, 10-bet.
2. Nosiruddin Rabg‘uziy . “Qisasi Rabg‘uziy”.2-kitob. Toshkent.: Yozuvchi, 1991, 278-bet.
3. N.Rahmanov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent.:2014.
4. E. Begmatov va b. O‘zbek tilining izohli lug ‘ati. Toshkent . “O ‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ’’ , 2006, 473-bet]
5. Fozilov E. I. Nosiruddin Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabg‘uziy” asari. “Qisasi Rabg‘uziy”.1-kitob. Toshkent.: Yozuvchi, 1990, 8-bet.